

AYOLLAR O'RTASIDA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH, ULARNI ISH BILAN
TA'MINLASH. YANGI O'ZBEKISTONDA AYOLLARNING JAMIYATDAGI
FAOLLIGINI OSHIRISH SOHASIDA QILINAYOTGAN ISHLAR:
ISLOHOTLAR VA QARORLAR

Habibullayeva So'g'diyona
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 05.09.2026

Revised: 06.09.2026

Accepted: 07.09.2026

KALIT SO'ZLAR:

"Ayollar daftari",
"Gender" tengligi
,ijtimoiy himoyaga
muhtoj qatlam,
ta'lim, fan va iqtisodiyot
yo'nalishlarida
ayollarga berilayotgan
imkoniyatlar, rahbar
kadrlar,
diskriminatsiyasining
yaxshi tarafga
o'zgarishi.

Ushbu maqolada ayollarning jamiyatdagi rolini oshirish, ularni ham moddiy ham ma'naviy jihatdan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar qatlamiga yordam ko'rsatish, ayol kadrlarning sonini ko'paytirish masalalari haqida so'z borgan. Shuningdek, davlat boshqaruv tizimida rahmar ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

KIRISH

Uzoq o'tmishga nazar solsak, xotin-qizlar faqatgina uy yumushlariga, farzand tarbiyasiga, oila a'zolarining yeyish-ichishi, kiyinishidagi kamchiliklarga mas'ul kishidek munosabatda bo'lingan. Ularni o'qitish, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun deyarli hech kim qayg'urmagan. Ammo zamon rivojlangan sari jamiyatning har bir sohasini ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmay qoldi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki quyidagi ko'rsatkichlarni taqozo etadi:

Mehnat kuchidagi ulushi: Ayollar umumiy mehnat kuchining 35,5 foizini tashkil etadi. Ayollar mehnatga faol ishtirok darajasi: 2023-yilda 15 yosh va undan katta ayollar orasida mehnatga faol ishtirok darajasi 39,9% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich erkaklar orasida 72,8% ni tashkil etadi, ya'ni ayollar va erkaklar o'rtasida sezilarli tafovut mavjud.

Ayollarning faoliyat yuritayotgan sohalari:

1. Tibbiyot va farmatsevtika: Ayollar ishga qabul qilinganlarning 76 foizini tashkil etgan.

- Ta'lim muassasalari: 69 foiz.

1. Buxgalteriya: 65 foiz.

- Kadrlar boshqaruvi: 62 foiz.

- San'at va madaniyat: 58 foiz.

TAHLIL VA MULOHAZALAR

Ayollarga berilayotgan so'nggi imkoniyatlar. Bunday darajaga xotin-qizlar masalalariga e'tibor qaratish, ularni atroflicha muhokama qilish va muqobil yechimlarni taqdim etilish yo'lga qo'yilgandan so'ng erishildi. Bunga misol qilib "Gender tengligi" loyihasini kirgizish o'rinli bo'ladi. Bu mavzu jamiyatimizda muhim o'rin tutadi va O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bu borada sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Gender tengligi nima?

Gender tengligi — bu erkaklar va ayollar, shuningdek, barcha jins vakillarining huquqlari, imkoniyatlari va majburiyatlari teng bo'lishini anglatadi. Bu shuni bildiradiki, insonlar jinsidan qat'i nazar, o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish, teng imkoniyatlarga ega bo'lish va jamiyatda teng ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Gender tengligining ahamiyati:

Inson huquqlarining asosiy tamoyili bo'lib, har bir insonning erkin va teng yashash huquqini ta'minlaydi. Ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish uchun zarur, chunki barcha jins vakillarining teng ishtiroki jamiyatning har tomonlama taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantiradi, chunki xilma-xil fikrlar va yondashuvlar yangi g'oyalar va yechimlarga olib keladi.

O'zbekistonda gender tengligi holati:

Yutuqlar: Mehnat kodeksiga o'zgartirishlar: 2022-yilda ayollar uchun ish joylaridagi cheklovlar olib tashlandi va teng haq to'lashni ta'minlovchi o'zgartirishlar kiritildi. Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar: 2023-yilda oilaviy zo'ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Siyosiy ishtirok: 2024-yil fevral holatiga ko'ra, parlamentdagi ayollar ulushi 34,6% ni tashkil etdi. Xalqaro reytinglarda yuksalish: O'zbekiston 2022-yilda 103-o'rindan 2024-yilda 52-o'ringa ko'tarildi.

Muammolar: Erta nikohlar: 20–24 yoshdagi ayollarning 3,4% i 18 yoshga to'lmadan turmushga chiqqan. O'smirlar orasida tug'ilish darajasi: 15–19 yoshdagi ayollar orasida 2022-yilda 1,000 ayolga 36,1 tug'ilish to'g'ri kelgan. Mehnat bozorida ishtirok: Ayollar mehnat kuchining 35,5% ini tashkil etadi.

Gender tengligini ta'minlash yo'llari: Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlovchi qonunlar qabul qilish. Ta'lim va sog'liqni saqlashga teng kirish: Barcha jins vakillarining sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishini

ta'minlash. Ayollar va erkaklar uchun teng ish sharoitlari va haq to'lash tizimini joriy etish. Ijtimoiy stereotiplarni yo'qotish: Genderga oid stereotiplarni bartaraf etish va barcha jins vakillarining jamiyatda teng ishtirokini rag'batlantirish hisoblanadi.

Ayollar daftari — bu O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy himoyaga muhtoj, yordam va qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji bo'lgan ayollar ro'yxatga olinadigan maxsus tizim. Maqsad — ularga turli sohalarida yordam berish: sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash, moddiy yordam, ijtimoiy xizmatlar va boshqalar. Mahalla faollari, hokim yordamchilari, xotin-qizlar qo'mitasi vakillari ayollarni tekshirib, ro'yxatga olishadi. Har bir ayolning holati alohida o'rganilib, unga individual yordam choralari belgilanadi

Ayollar daftari quyidagi toifalarga ajratiladi:

1. Ishsiz va ishsizlikka yaqin bo'lgan ayollar
2. Kam ta'minlangan, og'ir ijtimoiy ahvoldagi ayollar
3. Nogironligi bo'lgan yoki nogiron farzandi bor ayollar
4. Boquvchisini yo'qotgan yoki yolg'iz onalar
5. Oilaviy muammolari mavjud, zo'ravonlikdan aziyat chekayotgan ayollar
6. Kasalligi yoki sog'lig'i bilan bog'liq muammolari bor ayollar

Ayollar daftari orqali qanday yordam beriladi?

Moddiy yordam (bir martalik yoki doimiy) Ishga joylashtirish, Kasb-hunar o'rgatish. Bundan tashqari yana quyidagi sohalarida ayollarga yordam berish ko'zda tutilgan:

Sog'liqni saqlash xizmatlari

Psixologik yordam

Huquqiy maslahatlar

Davolanish yoki rehabilitatsiya markazlariga yuborish

Uy-joy bilan ta'minlash yoki ta'mirlash ishlari

Ayollar daftari qanday tuziladi?

1. Mahalla faollari va hokim yordamchilari tomonidan ehtiyojmand ayollar aniqlanadi.
2. Tuman yoki shahar hokimiyati tasdig'idan o'tkaziladi?
3. Axborot tizimiga kiritiladi.
4. Har chorakda yangilanib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta'minlashga alohida e'tibor beradi. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to'g'risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to'g'risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilangan. Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979 yil 18 dekabrda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish

to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan. Ushbu Konvensiyaga O'zbekiston 1995 yil 6 mayda qo'shilgan. Konvensiyaning bajarilishi bo'yicha O'zbekistonning Oltinchi davriy ma'ruzasi BMT Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo'mitasining 2022 yil 15-16 fevral kunlari bo'lib o'tgan 81-sessiyasida ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari ta'lim sohasida ham ayollar uchun imkoniyatlar talaygina. Misol uchun, 2021-2022 o'quv yilidan 150 nafar qiz va ayollarning to'lov-kontrakti to'lab beriladi – Prezident qarori: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 14 ta bandida keltirilgan holatlar bo'yicha bugun yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda va bu o'z natijasini bermoqda. Qolaversa, barchamizni quvontiradigan yangilik bu - magistraturada o'qiydigan barcha xotin-qizlarning kontrakti to'lab beriladi. Davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi. "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-87-son, 07.03.2022 y.) qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2022 yil 1 sentyabrdan byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo'lgan ayollarga har oy uchun minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib byudjet hisobidan homiladorlik va tug'ish nafaqasi to'lanadi.

Xulosa o'rnida shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunda bunday qaror va farmoyishlar bilan xalqimizda uzoq yillardan beri shakllanib kelgan noto'g'ri stereotiplarni o'zgartirish, jamiyatda hali-haligacha mavjud bo'lgan diskriminatsiyani ijobiy tomonga og'dirish va ayol, nafaqat, ona yoki turmush o'rtoq, balki jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs, jamoatchilik faoli sifatida rolini oshirish kabi masalalar ham e'tibordan chetda qolayotgani yo'q. Zero, ayol faqatgina uy bekasi emas, balki jamiyatning bir bo'lagi va sezilmas ustunidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Primkulova Feruza Amirkulovna Yuristlar malakasini oshirish markazi mas'ul xodimi E-mail: feruzaprimkulova88@gmail.com
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi United Nations. (1948). Universal Declaration of Human Rights. United Nations.
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi markaziy qo'mitasi.
4. Normayeva Mashhura G'ulomovna. O'zbekistonda ayollar siyosiy faoliyatini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari: joriy holat va islohotlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni : Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-87-son 07.03. 2022.



6. YUNESKO (UNESCO) Gender Equality and Women's Empowerment: A Critical Analysis Nashriyot: UNESCO PublishingYili: 2020
7. United Nations Entity for Gender Equality and the Empowerment of Women (UN Women) Progress of the World's Women 2019-2020: Families in a Changing World Nashriyot: UN Women Yili: 2020
8. Naila Kabeer .Reversed Realities: Gender Hierarchies in Development Though Nashriyot: Verso Yili: 1994

